

AXBOROT VA KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALAR BILAN BIRGALIKDA TA'LIM
SIFATINI YAXSHILASH VA INNOVATSION G'YOYALARNI AMALDA QO'LLASH

Ikromov Xusan Xolmaxamatovich

Andijon mashinasozlik instituti

"Axborot texnologiyalar kafedrasи" katta o'qituvchisi,

Bahodirova Madinabonus Nodirbek qizi

Andijon mashinasozlik instituti

"Axborot tizimlari va texnologiyalari" yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Oliy ta'lismida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish, asosiy ikki an'anaviy yo'nalishda olib borilar edi. Ya'ni quyidagicha:

Birinchi yo'nalish	Ikkinci yo'nalish
<p>Ta'limi ni ta'minlashda hammabobligini texnologiyalardan foydalanish imkoniyati, ta'lum tizimiga boshqa usulda umuman ta'lum olishning iloji bo'limgan shaxslarni kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuni aytib o'tish lozimki, bunday distant masofali ta'lum berish shakli ko'pgina e'tirozga duch keladi. Ularga qarshi bo'lganlarning e'tirozlari to'g'ridir, ya'ni bo'lajak talabalar haqiqiy sifatli ta'lum olish uchun zarur bo'lgan barcha narsalardan maxrumdirlar: laboratoriya danagi ishlaridan, ilmiy kutubxonalarga kirishdan, o'qituvchi va boshqa talabalar bilan seminarlar, boshqa o'quv jarayonlar va norasmiy sharoitdagi muloqotlardan.</p>	<p>Axborot texnologiyalari yordamida nimani o'qitish va nimaga o'qitishni o'zgartirish uchun, ya'ni, an'anaviy yuzmavuz o'qitish shakli doirasida o'qitish mazmuni va usulidan foydalanish ko'zda tutilgan. Ammo, bu yerda ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish natijasida, ko'pincha asosiy ommanning tayyorlash darajasiga qaraganda, bilimdon, faol va layoqatlik talabalarga qo'shimcha imkoniyat yaratish bilan bog'liq bo'lgan juda ham qaltis muammo yuzaga keladi. Bunday vaziyat, masalan, foydalilanayotgan texnologiya ta'lum sistemasi uchun moslashtirilmagan bo'lishi va unda ishslash maxsus tayyorgarlikni talab qilishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.</p>

Boshqacha aytganda, amalda ta'lum berish tizimida axborot texnologiyalarni tadbiq etish, bilim olishning hammabobligini yoki saralangan talabalar bilimi sifatini oshirishga yordam beradi. Ayni vaqtida jamiyatning talabi tabiiy, ya'ni hammabob va sifatli bilim olishdadir. Haqiqatdan, bilim olishning hammabobligi va sifati o'rtasida qaramaqarshilik mavjud ekanligi tushinarli. Asosiy ta'lum resurslari doimo qat'iy chegaralangan miqdorga va ma'lum pul ekvivalentiga ega bo'ladi: auditoriya joylari, ilmiy kutubxonadagi kitoblar, laboratoriya jihozlari, malakali o'qituvchilar. Nima afzal - resurslarni jamlashmi yoki tarqatib yuborish, sifatni yaxshilashmi yoki bilimni hammabobligini ta'minlash? Yoki ko'p sonli talabalarning har birini kerakli ta'lum resurslari bilan ta'minlash uchun, ta'lum olish narxini ko'tarish kerakdir? Bir qarashda

ta'limni rivojlantirishning xuddi shunday yo'li mavjuddir. Lekin, ta'limni hammabobligini va sifatini yaxshilashni birga amalgalashish yo'li ham mavjuddir, tarixda kamida ikkita shunday revolyutsiya bo'lgan. Ammo muammo shundan iboratki, har qanday revolyutsiyada, biror narsa ko'pchilik uchun hammabobroq bo'lsa, kimdir bu narsadan ayriladi. Sifat va hammaboblikda ham xuddi shunday - biror bir yo'naliш yaxshilansa, iкkinchi yo'naliш yomonlashadi.

Yuqorida keltirilgan ikki an'anaviy yo'naliш ta'limda bugungi kungacha o'ргanilayotgan muammolari bo'lgan. Hozirgi kunga kelib biz yoshlar ya'ni, Axborot texnologiyalari yo'naliшida o'zimizni qiziqishlarimiz va domlalarimiz bilan birlashtirish olib borayotgan amaliy mashg'ulotlarimiz o'z natijasini berib kelmoqda. Talabalar online ta'limni o'ргanish natijasida bir qancha muammolarga duch keldik. Masalan; HEMIS ta'lim platformasi. Biz ushbu platformdan foydalangan holda o'qituvchilarimiz bergen topshiriqlarni ko'rishimiz va o'tilgan darsliklar bo'yicha o'quv qo'llanmalarni olishimiz mumkin. Lekin davomat masalasi, qo'shimcha adabiyotlarni hemisdan ololmiyimiz. Ushbu muammolarga duch kelgan holda muammoga yechim izladik. So'ng platformaga raqobat bardosh innovatsion loyiha EDUX ilovasini ishlab chiqdik. Ilovani maktablarga, o'quv markazlarga qo'llash maqsadga muvofiq deb bildik. Chunki hozida bilamiz ingliz tili, rus tili va IT sohalarda ko'plab o'quv kurslar o'z faoliyatini olib bormoqda. Loyihamizni ta'lim jarayonida afzal tomonlari shuki yuqoridagi davomat va o'quv materiallarini, adabiyotlarni yetishmovchiligini ta'minlab beradi. Davomatda kameradan foydalilaniladi ya'ni suniy intellekt orqali, talabani yuzi masofadan aniqlanadi va o'quv binosiga kelgan vaqt davomatdan o'tkaziladi. O'quv adabiyotlari esa ilovada mavjud bo'lib kutubxona bilan birlashtirilgan. Ushbu kutubxonadan o'quvchiga kerak bo'lgan barcha turdag'i adabiyotlarni toppish mumkin.

Intellektual resurslarning hajmi va yutuqlari o'sib bormoqda. Kutubxonalarning elektron kataloglari bilan birga Internet, vaqt va masofaga qaramay doimo ochiq bo'lgan juda katta xajmdagi axborot to'plamlariga kirish imkonini yaratadi. Albatta bunday kutubxonalar, ularda saqlanayotgan barcha axborotlarga to'liq kira olishni axborot texnologiyalari ta'minlaydi. Innovatsion g'oyalar talab darajasiga yetganda amalgalashish oshirilishi darkor.

Ammo texnologiyalar o'z o'zidan, xoh u qog'oz bo'lsin, xoh auditoriya, kompyuter bo'lsa ham hech qanday o'zgarishni olib kelmaydi. Ulardan foydalishning natijalari ulardan biz qanday va qaysi maqsadda foydalishimiz orqali belgilanadi. Aynan zamonaviy sharoitda ta'limning sifati va hammabobligini takomillashtirish uchun, ta'lim berishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarning tadbiq etishning eng maqul yo'l bu muammolarga to'g'ri yechim topa olishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Nazarov Umarali, Karimov Abduboqi «Ta'limda axborot texnologiyalari». Samarqand. 2014 y

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)**

2. Qosimov S.S. "Axborot texnologiyalari". Toshkent. 2006 у
3. Икромов, X. X. (2021). СОЗДАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ. Universum: технические науки, (2-1), 21-22.
4. 2. Butayev, E. N. (2021). Algoritmlar Tizimli Tahlili Va Ularning Takomillashtirish. ФАРГОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ И Л М И Й-Т Е Х Н И К А ЖУРНАЛИ, 25, 36-41..